

SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOT

MATEMATIKA

Mavzu: Misollar yechish

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarni mantiqiy fikrlashga fanlararo bog'lanishga, mustaqil fikrlashga va bayon eta olishga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: Topqirlik, chaqqonlik, xozirjavoblik, bir-biriga o'zaro do'stona munosabatda bo'lish kabi hislatlarni tarbiyalash.

Rivojlanuvchi maqsad: Faollik qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Uslub: Noan'anaviy

Ko'rgazmali qurollar: Multimediya, kartochkalar, rasmkar.

Darsning borishi:


I. Tashkiliy qism (darsga hozirlik, navbatchi hisoboti).

II. Aqliy hujm

1. O'lkamizda qaysi fasl hukm surmoqda?
2. Yil nomlanishi?
3. Obod turmush deganda nimani tushunasiz?

III. Guruhlarga bo'linish, nom va shior tanlash
(Charxpalakdan guruhlar nomlari aniqlanadi)

IV. 3 xonali sonni 1 xonali songa bo'lish haqidagi bilimlaringizni aniqlaymiz.
(Guruhlar uchun quyidagi topshiriqlar beriladi)



V. Mantiqiy topshiriq:


$$\begin{array}{r} -36 : 9 \\ \hline 72 \\ -72 \\ \hline 0 \end{array}$$

Topshiriqni bajarish uchun nimaga e'tibor berish kerak?


Sonnan 36ni ayirish, buning uchun 9ni qanday songa ko'paytirish kerak?
Qoldig'i 7 chiqishi uchun qanday sonni 36ga qo'shish kerak?

VI. Topshiriq


Kvadrat ichidagi sonlarni aying, natijani esa shunday songa ko'paytiring-ki, u uchburchak ichidagi songa teng bo'lsin.



Doira ichidagi sonlarni aying, natijani esa shunday songa ko'paytiring-ki, u uchburchak ichidagi songa teng bo'lsin.




Kvadrat ichidagi sonlarni aying, natijani esa shunday songa ko'paytiring-ki, u doira ichidagi songa teng bo'lsin.



(Bu shakillarni yana qaysi fanlarda qo'llaymiz?)

Mehnat, tasviriy san'at darslarida (kvadrat, uchburchak, doira ichiga naqsh ishlashda).

VII. Parashutdan sakrash.




VIII. Bosh kataklarga kerakli belgilarni qo'ying, natija esa 55 ga teng bo'lsin.

BO'SH KATAKLARGA KERAKLI BELGILARNI QO'YING

165		3	==	55
57		2	==	55
43		12	==	55
30		25	==	55
76		21	==	55
275		5	==	55
5		11	==	55
123		68	==	55

IX. Krossvordni yeching.



1. $96:24=?$
2. $72:12=?$
3. Sharti va yechimi lozim bo'lgan mashq nima?
4. Eng katta o'lchov birligi?
5. Yig'indi va ayirmani topadigan mashq?
6. $75:3-15=?$
7. $117:13=?$

X. Masalani yeching.



**Buvida 34 dona konfet bor edi. Konfetlarni nabiralariga
6 tadan bo'lib berdi va unda yana 4 dona konfet qoldi.
Buvining nechta nabirasi bor?**

XI. Yakunlash

O'quvchilar guruhlar asosida baholanadilar va rag'batlantiriladi. G'olib bo'lgan guruh "Bilimdon" jurnali bilan tag'dirlanadi.



Gulchehra Ergashova

Sinfdan tashqari mashg'ulot



Matematika

Chirchiq - 2013

Bunday mashg'ulotlarni olib borish o'quvchilarda faollikni oshiradi, ularni topqirlik, hozirjavoblik, tezkorlik fazilatlarini shakllantirish bilan birga ularning dunyo qarashini oshiradi, mantiqiy va erkin fikrini bayon eta olishga, hayot bilan bog'lashga o'rgatadi.

Taqrizchilar:
Maktab direktori T.T.Gulyamova
O'IBDO' M.K.Nurmetova
MMIBDO' O.F.Sattorova